



**OILAVIY BIZNESLARDA LIZING - INVESTITSIYANI
MOLIYALASHTIRISHNING MUQOBIL SHAKLI: TASHQI
BUXGALTER MASLAHATINING AHAMIYATI**

*Panjiyev Muxtor Alisher o'g'li,
Botirov Azizbek Ne'matullo o'g'li
Termiz davlat universiteti
mustaqil izlanuvchilari
panjiyevmuxtor77@gamil.com
botirovazizbek478@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu tezis oilaviy korxonalarda lizingdan muqobil moliyalashtirish vositasi sifatida foydalanish masalasini hamda bu tanlovda tashqi buxgalterning maslahat beruvchi roli qanday omillar orqali shakllanishini yoritadi. Tadqiqotga ko'ra, lizing iqtisodiy jihatdan qiziqarli bo'lishiga qaramay, oilaviy bizneslar uni amaliyotda kamroq qo'llashi kuzatiladi, shuning uchun mualliflar oilaviy korxonalarining lizing bo'yicha qarorlarida eng ishonchli maslahatchi bo'lgan buxgalter ta'sirini alohida o'rganadi. Maqolada sifatli ko'p holatli yondashuv asosida buxgalter tavsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar konseptual doira ko'rinishida jamlanadi: ishonch omillari va oilaviy maqsadlar. Natijalar oilaviy bizneslarda lizingni investitsion faoliyatni moliyalashtirishning moslashuvchan va riskni nisbatan cheklovchi mexanizmi sifatida talqin qilishga asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: lizing, oilaviy biznes, investitsiya, muqobil moliyalashtirish, tashqi buxgalter, naqd pul oqimi.

1. Kirish

Oilaviy bizneslarda moliyaviy qarorlar ko'pincha faqat iqtisodiy hisob-kitob bilan cheklanmaydi, balki ular oila, avlod davomiyligi, oila nazorati va emotsional motivlarni qamrab oluvchi "sotsio-emotsional boylik" (SEW)ni saqlash kabi



noiqtisodiy omillarni ham hisobga oladi. Shu sabab, moliyalashtirish manbasini tanlashda oilaviy korxonalar nazoratining susayishi, tashqi kuzatuv kuchayishi yoki risklar ortishi kabi jihatlarga sabab bo‘ladi.

Lizingni muqobil moliyalashtirish shakli sifatida ko‘rib, oilaviy korxonalar lizingni tanlash-tanlamaslik jarayonida buxgalter maslahatining o‘rni va ta’sir mexanizmini aniqlashni maqsad qiladi. Xususan, tadqiqot “oilaviy korxonaning lizingni muqobil moliyalashtirish sifatida qo‘llash-qo‘llamaslik qarorida buxgalterning roli qanday?” degan savolga javob izlaydi. Lizing ikki tomon o‘rtasidagi shartnomaviy kelishuv sifatida ta’riflanadi: lizing oluvchiga davriy to‘lovlar evaziga aktivdan oldindan belgilangan muddat davomida foydalanish huquqini oladi va undan keladigan iqtisodiy manfaatlarni qo‘lga kiritadi. Ushbu ta’rif lizingni investitsion faoliyat bilan bog‘laydi. Korxona aktivni bir yo‘la sotib olmasdan, uning ishlab chiqarish yoki operatsion foydasini olish orqali investitsion maqsadga erishadi.

Moliyaviy lizing: aktiv bilan bog‘liq risklar ko‘proq lizing oluvchi zimmasida bo‘ladi, aktiv balansida aks etishi mumkin va odatda muddat oxirida sotib olish opsiyasi mavjud.

Operatsion lizing: risklarni asosan ijaraga beruvchi o‘z zimmasiga oladi, to‘lovlar daromadlar hisobotida ijara xarajati sifatida yuritiladi va amaliyotda balansdan tashqari moliyalashtirish sifatida ham tilga olinadi. Shuningdek, lizingning amaliy afzalliklarini ham qayd etadi. Investitsiyani chetlab o‘tish, ipoteka yoki garov talabining moslashuvchanligi, hamda naqd pul oqimiga moslab to‘lovlarni rejalashtirish imkoniyati ham ko‘rish mumkin. Lizing va buxgalter maslahatining birgalikdagi kontekstida tadqiqotlar kamligi sababli sifatli yondashuvni tanlagan: “qanday” va “nega” savollariga javob berish uchun **ko‘p holatli omillar** nazariy takliflar ishlab chiqiladi.



Natijasida buxgalter tavsiyalarini tushuntiruvchi konseptual doira taklif qilinadi. Unda omillar 3 guruhga jamlanadi:

- Munosabat jihatlari
- Oilaviy maqsadlar
- Texnik muammolar

Birinchii muhim natija shuki, oilaviy korxonalar moliyaviy qarorlarda buxgalterni ko'pincha asosiy maslahat manbai deb biladi. Bu ta'sir darajasi mijoz va buxgalter o'rtasidagi ishonch munosabati bilan bevosita bog'liq. Demak, lizing bo'yicha qarorlar ham ko'p hollarda buxgalter tavsiyasi orqali shakllanadi: qaysi variant risk yoki soliq jihatidan maqbul ekani shu maslahatda jamlanadi. Kafolat talabi muhim to'siq sifatida ko'riladi: buxgalterlar odatda **kafolat talab qiladigan** moliyalashtirish turlarini tavsiya qilishga kamroq moyil ekani taklif qilinadi. Shuningdek, lizing ko'pincha pastroq risk bilan bog'lanadi: respondentlar lizingda garov, ta'minot sifatida ko'pincha aktivning o'zi chegaralovchi rol o'ynashini ta'kidlaydi va shu sabab buxgalterlar lizingni oilaviy bizneslarga past riskli variant sifatida tavsiya qilishi mumkin. Bu holat lizingning investitsion faoliyatga xizmat qilishini riskni boshqarilgan formatda ko'rsatadi. Korxona aktivdan foyda oladi, ammo majburiyat tuzilmasi ko'pincha aktiv bilan "chegaralanadi".

Buxgalterlar tavsiyasida asosiy texnik mezonlardan biri — oylik to'lov va foiz yukining korxona pul oqimiga ta'siridir. Buxgalterlar shunday variantlarni tanlashga moyilki, bunda oilaviy korxona vaqt o'tishi bilan yetarli naqd pulni saqlab qoladi va noiqtisodiy maqsadlarni ta'minlay oladi. Ushbu natija lizingni investitsiyani bo'lib moliyalashtirish usuli sifatida ko'rsatadi. Katta bir martalik xarajat o'rniga, aktivdan foydalanish jarayoni davriy to'lovlarga taqsimlanadi.

Soliq omillari ham muhim hisoblanadi. Respondentlar lizingda QQSni oldindan moliyalashtirish zarurati ko'pincha bo'lmasligini, chunki to'lovlar oyma-oy amalga oshishini aytadi. Shu sababli, buxgalterlar soliq jihatlari inobatga oladi



va QQSni oldindan o'z mablag'i yoki qarz hisobiga qoplab turishni qilmaslik imkoniyati sababli lizingni an'anaviy bank moliyalashtirishiga nisbatan afzal tavsiya qilishi mumkin. Lizingning moslashuvchanlik yo'nalishidagi bir necha asosiy mexanizmlari ko'rsatiladi. Xususan, buxgalterlar lizingni tavsiya qilishdagi muhim sabab sifatida muddatni pul oqimiga moslab uzaytirish mumkinligini keltiradi va lizingning bank moliyalashtirishiga nisbatan moslashuvchanligi ajratib ko'rsatiladi. Bundan tashqari, lizingning katta investitsion chiqimni chetlab o'tish funksiyasi tufayli ko'plab tadbirkorlar qiyinchiliksiz biznesini kengaytiradi. Korxona aktivni sotib olmasdan foydalanadi, ya'ni katta bir martalik pul chiqimi o'rniga davriy to'lovlar orqali investitsion ehtiyojni qoplaydi.

Oilaviy bizneslar aktivni yakunda korxona ichida saqlab qolishni xohlashi mumkin. Shu sababli, buxgalterlar sotib olish imkoniyati mavjud bo'lgani uchun moliyaviy lizingni tavsiya qilishga moyilligi yuqoriroq bo'ladi. Amaliyotda esa operatsion lizingda ham sotib olish imkoniyati kiritilishi mumkinligi va risklar kamroq bo'lgani uchun ayrim buxgalterlar operatsion lizingni afzal ko'rishi ham qayt etish mumkin.

Umumiy xulosa qilib aytganda, oilaviy bizneslarda lizingni investitsion faoliyatni moliyalashtirishning muqobil shakli sifatida tanlash jarayoni ko'pincha buxgalter maslahatining sifatiga va ishonch munosabatiga bog'liq, hamda texnik mezonlar orqali asoslanadi. Natijalar lizingning investitsiyani bo'lib moliyalashtirish va riskni nisbatan cheklash xususiyatini ko'rsatadi. Korxona aktivdan foyda oladi, katta bir martalik investitsion chiqimni kamaytiradi va pul oqimini ehtiyotkorlik bilan boshqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Michiels A., Schepers J., Vandekerckhof P., Cirillo A. Leasing as an Alternative Form of Financing within Family Businesses: The Important Advisory



Role of the Accountant // Sustainability. — 2021. — Vol. 13. — Art. 6978. — DOI: 10.3390/su13126978.

2. Gallo M.A., Vilaseca A. Finance in family business // Family Business Review. — 1996. — Vol. 9. — P. 387–401.

3. Gomez-Mejia L.R., Haynes K.T., Nunez-Nickel M., Jacobson K.J., Moyano-Fuentes J. Socioemotional wealth and business risks in family-controlled firms: Evidence from Spanish olive oil mills // Administrative Science Quarterly. — 2007. — Vol. 52. — P. 106–137.

4. Landry S., Fortin A., Callimaci A. Family firms and the lease decision // Journal of Family Business Strategy. — 2013. — Vol. 4. — P. 176–187.

5. Mol-Gómez-Vázquez A., Hernández-Cánovas G., Koëter-Kant J. The use of leasing in financially constrained firms: An analysis for European SMEs // Czech Journal of Economics and Finance. — 2019. — Vol. 69. — P. 538–557.

6. Gomez-Mejia L.R., Cruz C., Berrone P., De Castro J. The bind that ties: Socioemotional wealth preservation in family firms // Academy of Management Annals. — 2011. — Vol. 5. — P. 653–707.

7. Lee K. Capital and Operating Leases. — Washington, DC : Federal Accounting Standards Advisory Board, 2003.

8. DiGiuli A., Caselli S., Gatti S. Are small family firms financially sophisticated? // Journal of Banking & Finance. — 2011. — Vol. 35. — P. 2931–2944.